

ONLAYN ARBITRAJDA AVTOMATLASHTIRILGAN QARORLAR QABUL QILISHDA ARBITRNI SUN'IIY INTELLEKTGA ALMASHTIRISH MASALASI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR

Meliqo'ziyev Fazliddin Abdurasul o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti xodimi

Annotatsiya: mazkur maqolada nizolarni onlayn hal qilish tizimida sun'iy intellektdan foydalanish, uning ahamiyati, onlayn arbitrajda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha ustunliklari va kamchiliklari, onlayn arbitrajda AI-arbitrlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini, huquqiy to'siqlarini, xalqaro tajribasini hamda texnologik va axloqiy muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida taqqoslama huquqshunoslik, hujjat tahlili va xalqaro amaliyot monitoringi usullaridan foydalanildi.

Kirish so'zlar: Artificial intelligence, Online Dispute Resolution, UNCITRAL, Digital Economy Report, AI-arbitr, algoritm, UNCITRAL Model Law.

XXI asr boshidan boshlab raqamli transformatsiya jarayoni global miqyosda huquq tizimining barcha bo'g'inlariga chuqur kirib bordi. Raqamlashtirishning asosiy drayverlaridan biri sun'iy intellekt (AI – artificial intelligence) bo'lib, u nafaqat iqtisodiyot, sanoat tarmoqlari va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda, balki yurisprudensiya sohasida ham tijoriy-huquqiy nizolarni hal etish jarayonida ham qo'llanila boshlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024-yilgi “Digital Economy Report” ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro savdo operatsiyalarining 56 foizdan ortig'i elektron platformalar orqali amalga oshirilmoqda¹. Shu bilan birga, elektron shartnomalarga oid nizolar hajmi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Bu omil esa an'anaviy arbitraj tizimlarini bunday katta hajmdagi o'sish sur'atlarini qamrab olishda qiyinchilikka ro'baro qilmoqda. **Nizolarni hal qilishning onlayn mexanizmlari** (Online Dispute Resolution, ODR) so'nggi yillarda xalqaro savdo va elektron shartnomalar sohasida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, global miqyosda elektron platformalar orqali amalga oshiriladigan bitimlar soni oshgani sari, an'anaviy sud yoki arbitraj jarayonlari bilan barcha nizolarni tezkor hal qilish tobora murakkablashmoqda. Shu nuqtada ODR tizimlari muhim alternativ yechim sifatida maydonga chiqadi.

ODR jarayonlarining **sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari** bilan integratsiyasi ushbu tizimning samaradorligini bir necha barobar oshirish imkonini beradi. AI algoritmlari mavjud qonunchilik, oldingi arbitraj qarorlari va nizoning o'ziga xos

¹ https://unctad.org/system/files/official-document/der2024_en.pdf

holatlarini tezkor tahlil qilib, avtomatik ravishda takliflar yoki hatto qaror loyihalarini ishlab chiqishi mumkin. Bunday imkoniyatlar nafaqat vaqt va mablag'ni tejaydi, balki inson omili sabab yuzaga kelishi mumkin bo'lgan subyektivlik va xatolarni kamaytiradi.

Misol sifatida, **AI-arbitrlar** – sun'iy intellekt asosida ishlovchi virtual hakamlar – turli tillardagi hujjatlarni avtomatik tarjima qilish, shartnoma bandlarini tahlil qilish va mos huquqiy me'yorlarni aniqlash orqali nizolarni bir necha soat yoki kun ichida hal qilishga yordam beradi. Bu ayniqsa transchegaraviy savdoda muhim, chunki bunday nizolar ko'pincha turli yurisdiksiya, til va madaniyatdagi tomonlarni o'z ichiga oladi.

Nizolarni onlayn hal etish (Online Dispute Resolution (ODR)) va sun'iy intellekt (AI) integratsiyasi quyidagi afzalliklarni yaratadi:

Tezkorlik. An'anaviy arbitraj yoki sud jarayonlari oylar, ba'zan yillar davom etishi mumkin bo'lsa, AI yordami bilan bu muddat bir necha soat yoki kunlarga qisqaradi. Taraflar va arbitrlar arbitraj muhokamasida ishtirok etish uchun uzoq masofalarni bosib o'tishlariga zarurat yo'q. Taraflarning uchrashuvlari va tinglovlarini masofadan turib o'tkazish uchun audio-video konferensiya qilish orqali eng yangi texnologiyalardan va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda arbitraj muassasalarini jihozlashning o'zi buning uchun yetarli bo'lmoqda. Bu esa taraflar uchun borish-kelish xarajatlarini va arbitraj muhokamasini tashkil etishdagi qo'shimcha xarajatlarni keskin kamaytiradi. Zamonaviy texnologiyalarning samarasi faqatgina yuqoridagi protsesslar bilan cheklanib qolmaydi. Tomonlarning ma'lumotlarni almashishi, taqdim etilgan dalillarni tekshirish, ma'lumotlarni taxlil qilish, tegishli hujjatlarni uzatish, tezkor kuzatish, taraflar nizoga aloqador hujjatlar, presedentlar bilan tanishib chiqishi, ma'lumotlarni saralash va shu kabi boshqa jarayonlarni bajarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilishi bilan bu jarayonlardagi turli kechikishlarning oldi olinadi. Bu jarayonning tezkor va samarali yakunlanishini ta'minlaydi.

Tejamkorlik (arzonligi). Nizolarni onlayn hal qilishning (ODR), jumladan onlayn arbitrajda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali uning yana afzalliklaridan yana biri – xarajatlarni tejashga erishish mumkin. Sohada bu kabi texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish orqali onlayn arbitrajni nizo tomonlari uchun yoki bo'lmasa nizolarni hal qiluvchi arbitr, advokat, vositachi yoki arbitrajning boshqa ishtirokchisi uchun ham anchayin tejamkorroq qilish mumkin. Onlayn arbitrajda xizmat narxi odatda an'anaviy nizolarni hal qilish xizmatidan foydalanishga qaraganda pastroq bo'ladi va chunki ko'pincha onlayn arbitraj xizmatidan foydalanganda advokat yollashga hojat qolmasligi mumkin.

Xatoliklarning oldini olish imkoniyati. Inson arbitrlar axborotlarni taxlil qilish, talqin qilish, tarjima qilish, hujjatlashtirish, vakolat tanlash, qaror qabul qilish

va shu kabi boshqa jarayonlarida texnik xatolarga yo'l qo'yish ehtimoli yuqori. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan ushbu vazifalarni bajarishda to'g'ri foydalanish arbitraj jarayonidagi ish unumdorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar insoning nazaridan chetda qolgan eng mayda elementlargacha aniqlay olishi va jarayonni samarali qilish uchun ushbu kamchiliklarni bartarfa etish bo'yicha takliflarni tavsiya qilishi mumkin.

Xolislik: AI tizimlari shaffof algoritmlar asosida qaror chiqarib, manfaatlar to'qnashuvini kamaytiradi.

Qarorning darhol ijo etilishi. Hozirgi amaliyotda tomonlar arbitraj qarorini topshirganidan so'ng qarorning ijrosini kutishlari kerak bo'ladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari qarorni darhol amalga oshirishga imkon berishi mumkin. Masalan, pul bo'yicha nizo yuzaga kelgan taqdirda, bir tomon (A) boshqasiga (B) ma'lum miqdorda pul berishi kerakligi to'g'risida qaror qabul qilinadi. So'ngra sun'iy intellekt yordamida to'lanishi kerak bo'lgan miqdordagi pul darhol A ning bank hisobvarag'idan B ning bank hisob raqamiga o'tkaziladi. Shuningdek, sun'iy intellekt tegishli tomonlarga va organlarga onlayn arbitraj qarorining muvofiqligi to'g'risida ma'lumot berishi ham mumkin².

Kelajakda, AI asosidagi ODR tizimlari faqat kichik va o'rta miqyosdagi savdo nizolarini emas, balki yirik korporativ, intellektual mulk va iste'molchi huquqlari bo'yicha murakkab ishlarni ham ko'rib chiqishi kutilmoqda. Shu bilan birga, bu tizimlar xalqaro savdo tashkilotlari, arbitraj institutlari va milliy sud tizimlari tomonidan rasmiy tan olingan huquqiy mexanizmga aylanishi ehtimoli juda katta.

Nizolarni hal onlayn etish (Online Dispute Resolution, ODR) va uning AI texnologiyalari bilan integratsiyasi ushbu muammoga samarali yechim sifatida namoyon bo'lmoqda. AI-arbitrlar orqali nizolarni avtomatlashtirilgan tarzda ko'rib chiqish va qaror chiqarish imkoniyati huquqiy tizimni tezkor, arzon va xolis qilish istiqbolini yaratadi.

Yuqoridagi afzalliklariga qaramay nizolarni arbitrajda hal etishda sun'iy arbitrdan (AI) foydalanish bir qator muammoli holatlarga ham sababchi bo'lishi mumkin. Masalan:

Katta investitsiyalar. Arbitraj tizimida onlayn texnologiyalaridan amalda foydalanmaydigan davlatlar uchun arbitrajga ushbu texnologiyalarni joriy etish katta sarmoya va vaqtni talab qiladi. Chunki bunga birinchi navbatda bu kabi dinamik texnologiyalarni tushunadigan inson resurslari kerak bo'ladi. Ikkinchidan, arbitrajga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishda qonunchilikdagi ko'plab normalarni bu jarayonga moslashtirish va yangilarini qabul qilish ehtiyoji ham tug'iladi. Paradoks shundaki, arbitrajga sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish ish yuritish xarajatlarini

² <https://viamediationcentre.org/readnews/NTE5/PROS-AND-CONS-OF-ARTIFICIAL-INTELLIGENCE-IN-ADR>

kamaytirish uchun amalga oshirililsa-da, bu jarayon uchun sun'iy intellekt dasturlari va aqlli algoritmlarni ishlab chiqish uchun katta miqdordagi sarmoya kerak bo'ladi.

Sohadagi ishchi o'rnining qisqarishi. Nizolarni hal qilish sohasiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish va uning dasturlari, platformalaridan faol ravishda foydalanishning yo'lga qo'yilishi bu sohada band bo'lgan kadrlar sonining kamayishiga olib kelisi mumkin. Sababi sun'iy intellekt tizimining ishlashi uchun bir nechta mutaxassisgina talab qilinadi.

Maxfiylik siyosati. Arbitraj muhokamasining eng asosiy prinsiplaridan biri bu – maxfiylik prinsipi hisoblanadi. Sohadagi sun'iy intellektga asoslangan dasturlar va provayderlar to'liq dasturchi tomonidan ishlab chiqiladi. Dasturiy ta'minotlar xakerlik hujumlariga uchrashga moyil hisoblanadi. Bu holatda taraflarning maxfiy ma'lumotlari xakerlik hujumi orqali o'zga shaxslar tomonidan olinish ehtimoli oshadi.

Texnologik savodxonlikni talab qilishi. Nizolarni onlayn hal qilish ko'pincha adolat mezonlarini ta'minlash imkoniyatini oshirish usuli sifatida ilgari surilsa-da, u ko'pchilikka foydalanish uchun yetarli darajada universal emas. Uning dasturlaridan foydalanish uchun yetarli ko'nikmaning mavjud emasligiga foydalanuvchining yoshi, ta'lim olganlik darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy holati kabi bir qator omillar sabab bo'lishi mumkin. Masalan, Yangi Zelandiyada aholining salkam 90 foizdan ortiq qismi internetdan foydalanadi. Biroq yosh, moliyaviy ahvol va madaniy kelib chiqishiga ko'ra guruhlar o'rtasida katta farq mavjud³.

Moslashuvchanlikning yetishmasligi. Arbitrajdag har bir ish o'z xususiyatlariga ko'ra boshqasidan farq qiladi. Tizimdagi qarorlar ish tartibi nisbati bo'yicha qabul qilinadigan bo'lsa va ishni aniqlashning standartlashtirilgan jarayoni bir xil bo'lsa, unda tizimda izchillik yo'qligi asosiy muammo sifatida ko'rsatiladi. Har bir qaror xulosaga kelishga asos bo'lgan sabablar aniq ko'rsatilgan holda topshiriladi. Bu holatda sun'iy intellekt tizimi har bir ish uchun individual yondasish masalasida inson arbitrlar o'rnini bosa olmaydi.

Bundan tashqari xalqaro va bir qator davlatlarning milliy qonunchiliklarida arbitrajda nizolarni hal etishda faqatgina inson arbitrdan foydalanish shart ekanligi belgilan qo'yilgan. Masalan, Turkiyada (4686-sonli qonuni) faqat jismoniy shaxslar arbitr bo'lishi mumkin. Shotlandiya "Arbitraj akti"da ham (Arbitration Act 2010) shaxsiy maqom talabi (ya'ni arbitr faqat inson bo'lishi mumkinligi) mustahkamlangan. Shvetsiya va Braziliya qonunchiligida ham xuddi shu kabi cheklovlar mavjud.

Xalqaro hujjatlardan UNCITRAL Model Law SI-arbitrlarga aniq cheklov qo'ymaydi. New York konvensiyasida ham (New York Convention. 1958) arbitraj qarorlarini xalqaro tan olish tartibini belgilaydi, ammo SI-arbitrlarga oid maxsus qoidalar yo'q.

³ Charlotte Austin. February 2017. Online dispute resolution. An introduction to online dispute resolution (ODR), and its benefits and drawbacks. Page 19

Yuqoridagilardan xulosa qilib bir qator takliflarni ilgari surishni maqsadga muvofiq deb topdik. Jumladan,

Birinchidan, huquqiy baza moslashtirish: SI-arbitrlarga ruxsat beruvchi qonunchilik normalarini ishlab chiqish va joriy etish. Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining arbitraj jarayonlarida qo'llanilishi mavjud huquqiy me'yorlarga muvofiq tarzda tartibga solinishi lozim. Hozirgi kunda aksariyat milliy va xalqaro huquqiy tizimlarda arbitrlar faqat inson subyektlari orqali amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu bois, huquqiy bazani zamonaviy texnologiyalar, xususan, AI-arbitrlar konsepsiyasini o'z ichiga oladigan tarzda kengaytirish zarurati paydo bo'lmoqda. Buning uchun birinchi navbatda, arbitrlar faoliyatini bajaruvchi subyektlar ta'rifiga AI asosida ishlovchi tizimlarni ham qamrab oladigan normativ asoslar ishlab chiqilishi kerak. Bu normalar AI-arbitrlarning maqomini aniqlab berishi, u tomonidan chiqarilgan qarorlarning huquqiy kuchini belgilashi va ularning qabul qilinish tartibini reglamentlashtirishi lozim.

Shuningdek, huquqiy baza AI-arbitrlar tizimlarining ishlashiga oid minimum talablar, xususan — xolislik, shaffoflik, algoritmik asoslanganlik, tushunarli qaror chiqarish va inson nazorati ostida ishlash kabi prinsiplarni ham qamrab olishi kerak. Bu esa inson huquqlari, taraflarning tengligi va adolatli eshitilish tamoyillariga rioya etilishi kafolatini yaratadi. Bundan tashqari, AI-arbitrlar tizimlaridan foydalanishning huquqiy chegaralari, javobgarlik masalalari va nizolarning ko'rib chiqilish tartibi bo'yicha alohida normalarni ishlab chiqish zarur. Bu orqali yangi texnologiyalar ishtirokidagi arbitraj jarayonlari huquqiy aniqlik, barqarorlik va ishonchlilikka ega bo'ladi.

Ikkinchidan, texnologik infratuzilma: SI-arbitraj tizimlari uchun xavfsiz, shaffof va ishonchli raqamli muhitni shakllantirish. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi arbitraj tizimlarining samarali va ishonchli faoliyat yuritishi uchun mustahkam texnologik infratuzilma zarur. Bunday infratuzilma nafaqat texnik jihatdan barqaror va uzluksiz ishlovchi tizimlarni qamrab olishi, balki ishtirokchilar o'rtasida ishonchni mustahkamlovchi xavfsizlik va shaffoflik mexanizmlariga ham ega bo'lishi lozim. Ma'lumotlar xavfsizligi eng muhim omil bo'lib, arbitraj jarayonida ishtirok etuvchi tomonlarning hujjatlari, shartnomalari va boshqa nozik axborotlari kuchli himoya ostida bo'lishi kerak. Shu maqsadda zamonaviy kriptografik himoya vositalari, autentifikatsiya tizimlari, va ma'lumotlar bazasining xavfsiz arxitekturasini joriy etilishi muhimdir. Shuningdek, tizim faoliyatining to'liq shaffof bo'lishi — ya'ni har bir qarorning qanday algoritmik asosda chiqarilganini tushuntira olishi — ishtirokchilar uchun ochiqlikni ta'minlaydi. AI-modellarning qaror chiqarish jarayoni izchil hujjatlashtirilishi va audit uchun qulay bo'lishi lozim. Bu, ayniqsa, bahsli holatlarda SI qarorlariga nisbatan ishonchni oshiradi.

Bundan tashqari, yuqori darajadagi ishonchlilikni ta'minlash uchun AI-arbitraj tizimlari uzluksiz ishlashi, texnik nosozliklarga chidamli bo'lishi va foydalanuvchi uchun doimiy xizmat ko'rsatishni kafolatlay olishi kerak. Texnologik infratuzilma doimiy yangilanib boradigan, sinovdan o'tkazilgan va muvofiqlik standartlariga javob beradigan elementlarga asoslangan bo'lishi zarur. Shu bilan birga, foydalanuvchi interfeysi ham qulay, tushunarli va intuitiv bo'lishi, ishtirokchilarni raqamli vositalardan foydalanishda qiynamasligi kerak. Texnologik platformaning ushbu jihatlari orqali AI-arbitraj tizimining huquqiy, texnik va etik talablarga mosligi ta'minlanadi.

Uchinchidan, xalqaro hamkorlik: SI-arbitraj faoliyatini standartlashtirish va sertifikatliya tizimini ishlab chiqishda xalqaro tajribadan foydalanish. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi arbitraj tizimlarining global miqyosda tan olinishi va samarali faoliyat yuritishi uchun xalqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada xalqaro tashkilotlar, yetakchi texnologik markazlar va arbitraj institutlari bilan hamkorlik qilish orqali yagona texnik, etik va huquqiy standartlar ishlab chiqilishi lozim. Standartlashtirish, birinchi navbatda, AI-arbitraj tizimlarining ishlash mezonlarini — algoritmning ishonchliligi, xolislik darajasi, qaror chiqarishning tushuntiriluvchanligi va foydalanuvchi xavfsizligini belgilab beradi. Ushbu mezonlar orqali har xil davlatlarda yaratilgan yoki qo'llanilayotgan AI-arbitraj platformalari o'zaro solishtiriladigan va baholanadigan darajaga yetadi.

Shuningdek, xalqaro sertifikatliya tizimini joriy etish orqali SI-arbitrlik tizimlarining sifatini mustaqil baholash va akkreditatsiyadan o'tkazish imkoni yaratiladi. Bu esa nafaqat foydalanuvchilarning ishonchini oshiradi, balki ularning huquqlarini xalqaro darajada himoya qilishga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlik orqali ishlab chiqilgan standartlar va sertifikatlar, o'z navbatida, AI-arbitraj qarorlarining turli yurisdiksiyalarda tan olinishini yengillashtiradi. Bu esa sun'iy intellekt asosidagi arbitraj tizimlarining transmilliy nizolarni hal qilishdagi rolini kuchaytiradi.

To'rtinchidan, bosqichma-bosqich joriy etish: sun'iy intellektni dastlab yordamchi vosita sifatida, keyinchalik esa mustaqil arbitr sifatida integratsiya qilish. Sun'iy intellekt asosidagi arbitrlik tizimlarini huquqiy jarayonlarga to'liq joriy etish birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Dastlab AI texnologiyalari yordamchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, hujjatlarni tahlil qilish, da'vo va e'tirozlarni saralash, protseduraviy tavsiyalar berish yoki oldindan prognozlar taqdim etish orqali inson arbitrlarga qaror qabul qilishda ko'maklashadi. Bu bosqichda AI tizimlarining texnik imkoniyatlari, aniqlik darajasi, taraflar bilan o'zaro aloqasi va inson omili bilan qanday uyg'unlashishi sinovdan o'tkaziladi. Tajriba davomida aniqlangan kamchiliklar, xavf-xatarlar va etik muammolar asosida tizimlar takomillashtiriladi.

Keyingi bosqichda esa, sun'iy intellektga mustaqil arbitrlar sifatida aniq, cheklangan turdagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati berilishi mumkin. Bu, odatda, takrorlanuvchi, standartlashtirilgan va past xavfli nizolar (masalan, kichik tijorat da'volari yoki onlayn xizmatlarga oid kelishmovchiliklar) bilan bog'liq bo'ladi. Bunday yondashuv AI-arbitrlar tizimlarining samaradorligini amaliyotda baholash, taraflar orasida ishonchni shakllantirish va huquqiy muhitni texnologik o'zgarishlarga asta-sekin moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, AI-arbitrlardan foydalanish arbitraj tizimini tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega. Biroq bu yo'nalishda huquqiy, texnologik va axloqiy muammolarni bartaraf etish zarur. Normativ-huquqiy bazani moslashtirish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro hamkorlik AI-arbitrlarning muvaffaqiyatli joriy etilishining asosiy omillaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). **Digital Economy Report 2024**. Geneva: United Nations, 2024.
2. UNCITRAL. **Model Law on International Commercial Arbitration**. United Nations, 1985 (amendments 2006).
3. United Nations. **Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York Convention)**, 1958.
4. Turkish International Arbitration Law No. 4686, 2001.
5. Scotland Arbitration Act 2010.
6. Swedish Arbitration Act, 1999.
7. Brazilian Arbitration Law, Law No. 9.307/1996 (amended 2015).
8. Kaufmann-Kohler, G., & Schultz, T. **Online Dispute Resolution: Challenges for Contemporary Justice**. Kluwer Law International, 2004.
9. Katsh, E., & Rabinovich-Einy, O. **Digital Justice: Technology and the Internet of Disputes**. Oxford University Press, 2017.
10. Susskind, R. **Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future**. Oxford University Press, 2017.